

Poytaxtimiz haqidagi qo'shiq



Toshkent – Vatanimiz poytaxti. Ko'p yillar oldin Toshkent og'ir sinovni – zilzilani boshidan kechirdi. Biroq haqiqiy qahramon-shahar kabi tiklanib, qayta tug'ildi va avvalgidan ham ko'rkamroq shaharga aylandi.

Bugun **Toshkent** – zamonaviy, chiroyli va mehmondo'st shahar. Bu yerda ochiqko'ngil, mehnatsevar, iste'dodli insonlar yashaydi. Bu shaharda bolalarning shodon kulgisi yangraydi, gullar ochiladi va quyosh porlaydi. Biz – O'zbekiston bolalarimiz. Biz poytaxtimiz bilan faxrlanamiz va uni yaxshi ko'ramiz!

Toshkentim – onam

Turob To'la so'zi
Farruh Zokirov musiqasi



3

Naqarot:

Buncha yaxshi bo'lmasang, (2 marta)
Toshkentim – onam, (3 marta)
Seni birpas ko'rmasam,
Ko'zlarimda nam.

Kimsan o'zing, nimasan, (2 marta)
Sehrgarmisan? (3 marta)
Bunchalar qiynamasang,
Zulfizarmisan?

Yurolmadim yiroqda
Seni sog'inib,
Bamisoli firoqda
Yonib, oh urib.

} 2 marta

Sensiz xayolim, holim, (2 marta)
Parokandadir. (3 marta)
Qayda bo'lsam xayolim,
Ko'nglim sendadir.

Naqarot

Yurolmadim yiroqda
Seni sog'inib,
Bamisoli firoqda
Yonib, oh urib.

} 2 marta



1. Qo'shiqda qaysi shahar haqida kuylanmoqda?
2. Toshkent nega sehgarga o'xshatilgan?
3. Poytaxtimizda qanday diqqatga sazovor joylar bor?
4. O'ylab ko'ring, nima uchun Toshkent shahrimiz bilan faxrlanishimiz va uni ona uyimiz deb atashimiz mumkin?



- Qo'shiqni yod oling.
- O'zbekiston poytaxti haqida kichik taqdimot tayyorlang.

